BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

O‘ktamova Umida Kamoliddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi magistranti
oktamovaumida210@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan. Raqamli texnolgiyalar orqali bolalarni o‘quv mashg‘ulotlariga qiziqtirish va ta’lim natijalariga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, multimedia vositalari, elektron darsliklardan foydalanishning afzalliklari hamda ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, elektron doska, animatsiyalar, elektron platformalar

Abstract: This article focuses on the effective use of digital technologies in primary schools. It scientifically analyzes the impact of digital technologies on children's engagement in learning and on educational outcomes. The advantages of using multimedia tools and electronic textbooks, as well as their impact on students' independent thinking, are also scientifically covered.

Keywords: Digital technologies, electronic whiteboard, animations, electronic platforms

Аннотация: Данная статья посвящена эффективному использованию цифровых технологий в начальной школе. В ней проводится научный анализ влияния цифровых технологий на вовлеченность детей в процесс обучения и на образовательные результаты. В статье также научно освещены преимущества использования мультимедийных средств и электронных учебников, а также их влияние на развитие самостоятельного мышления учащихся.

Ключевые слова: цифровые технологии, электронная доска, анимация, электронные платформы

Bugungi kunda zamonaviy maktablarni raqamli ta’lim texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi ya’ni busiz umuman qo‘llanilmaydigan sohaning o‘zi yo‘q. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda ham ta’lim tizimi raqamli texniologiyalar asosida tashkil qilinmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida dars jarayonlari yanada qiziqarli

tashkil etiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv hamda darsdan tashqari vaqtlarda video taqdimotlardan, videoroliklardan, turli xil o‘quv dastutlaridan foydalanish orqali yoki masofaviy olimpiadalar tashik qilish orqali o‘quvchilarni darslarga qiziqtirish mumkin. Shuningdek, elektron doskalar, animatsiyalar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilar mavzuni tez va oson tushunib olishlari mumkin. Bu esa ularning mantiqiy tahlil qilish va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiriadi. Elektron darsliklar orqali murakkab mavzular sodda hamda tushunarli qilib yetkazilishi mumkin. Masalan, matematika yoki ona tili fanlaridan turli elektron platformalar orqali topshiriqlarni bajarish yoki mavzuni takrorlash o‘quvchilarning faolligini ham qiziqishini ham oshirishi mumkin.Shuningdek, onlayn platformalar orqali o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqa yanada mustahkamlanadi. Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, o‘quvchi darsdan tashqari vaqtlarda elektron kitoblar yoki internet manbalari orqali mustaqil izlanib o‘rganishadi. O‘qituvchilar esa onlayn platformalar orqali bolalarni tez va oson baholashi mumkin. Bu esa o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirib, ko‘proq vaqtini tarbiyaviy hamda ijodiy ishlarga sarflashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar o‘qituvchining pedagogik mahoratini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv samaradorligini oshiradi. Innovatsion tezxnologiyalar asosidagi ta’lim jarayoni an’anaviy usullarga qaraganda jonli va qiziqarli bo‘lishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quvchilarning kreativ fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshqa tomondan raqamli texnologiyalardan foydalanishda me’yor va nazorat muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarning yoshlarini inobatga olgan holda texnologiyalardan maqsadli va samarali foydalanish darkordir. Shuningdek hamma hududlarda ham internet sifati bir xil emasligi yoki ba;zi o‘quvchilar ushbu texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish ta;lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ham raqamli ta’limni tashkil etishda nazorat, me’yor va pedagogik yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini va faolligini oshirishi mukin lekin me’yor hamda nazorat ham muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy texnalogiyalar yordamida darslar yanada qiziqarli, interaktiv va tushunarli tashkil etiladi. Kelajakda ta’lim tizmini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va sifatli elektron resurslarni yaratish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning kommunikativ kopmetensiyalarini rivojlantirish Utemuratov Bayrambay Kulmuratovich

2. “Pedagoggs’ international research journal Maxmuda Qo‘ldosheva “Boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim texnoligiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyati”

3. International conference pedagogical reforms and their solutions. Normurodova Saodat Musurmon qizi “Boshlang‘ich sinflarda raqam,li texnologiyalardan foydalanish usullari”